

XALQ O‘YINLARI – MA’NAVIYAT MANBAI VA TARBIYA MAKtabi

Davlatova Saidaxon Tojimuxammadovna

Qo‘qon Universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati, ularning milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni saqlash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi o‘rni yoritilgan. Muallif xalq o‘yinlarining ildizlari chuqur tarixiy, madaniy va ijtimoiy asosga ega ekanligini ta’kidlab, ularning shakllanishi totemistik va anmistik qarashlarga borib taqalishini ilmiy dalillar bilan ko‘rsatadi. “Alpomish”, “Shohnoma” kabi dostonlar hamda tarixiy manbalar orqali xalq o‘yinlarining shakli, mazmuni va tarbiyaviy yo‘nalishlari ochib beriladi. Ayniqsa, ot, o‘q-yoy, chavandozlik, menganlik kabi o‘yinlar vositasida yosh avlodda jasorat, fidoyilik, jismoniy tayyorgarlik kabi fazilatlar shakllantirilganiga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: Milliy mustaqillik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, xalq o‘yinlari, urf-odat va an’analar, jismoniy tarbiya, totemizm va a’nizmizm, qahramonlik dostonlari, ovchilik va chavandozlik, bolalar tarbiyası, madaniy meros, menganlik va o‘q-yoy.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается воспитательное значение народных игр как важной составляющей устного народного творчества узбекского народа. Автор подчеркивает глубокие исторические, культурные и социальные корни этих игр, связывая их происхождение с анимистическими и тотемистическими представлениями древности. На основе героических эпосов (“Алпомиш”, “Шахнаме”) и исторических источников раскрывается смысл и структура народных игр. Особое внимание уделяется играм, связанным с верховой ездой, стрельбой из лука, ловкостью и смелостью, подчеркивая их роль в формировании духовно и физически крепкого молодого поколения.

Ключевые слова: Национальная независимость, нравственно-духовное воспитание, устное народное творчество, народные игры, обычаи и традиции, физическое воспитание, тотемизм и анимизм, эпические поэмы, охота и верховая езда, воспитание детей, культурное наследие, меткость и стрельба из лука.

ANNOTATION. This article explores the educational and cultural value of Uzbek folk games as a significant element of oral folklore. The author emphasizes the historical, cultural, and social depth of these games, tracing their origins to animistic and totemic beliefs of ancient times. Using heroic epics such as “Alpomish” and “Shahnameh”, along with historical records, the article illustrates the structure, content, and educational direction of traditional games. Special focus is given to games

involving horseback riding, archery, and physical prowess, highlighting their role in fostering bravery, discipline, and moral development among the youth.

Keywords: National independence, moral and spiritual education, folk oral literature, traditional games, customs and traditions, physical education, totemism and animism, heroic epics, hunting and horsemanship, child upbringing, cultural heritage, archery and marksmanship.

Milliy mustaqillikka erishish tub o'zgarish sifatida oilada va ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi janrlarining yetakchi janrlaridan biri bo'lgan xalq o'yinlari vositasida ma'naviy- axloqiy tarbiyalash borasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir.

O'zbek xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan xalq o'yinlari, xalq ma'naviyati va madaniyati yangi avlodni shakllantirish va ular orasida sog'lom turmush tarzini yaratishda alohida o'rinn tutadi. Zero, ma'naviyat -insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir¹. O'rganilgan ilmiy-uslubiy va maxsus adabiy manbalarning tasdiqlashicha, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va maishiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lган. Bu esa qadimda ham xalqimizning madaniy turmush tarzi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi². O'zbek xalq dostonlari ham shunday omillardan biridir. Bu dostonlardagi G'irot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunuko'r kabi ot obrazlarining nufuzli o'rinn tutishi ot totemi naqadar kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik hamda totemistik qarashlarni vujudga keltirgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, quyi poliolit davrida yer yuzasining shimoliy qismida totemga oid "Ayiq bayramlari" ham bo'lgan. Totem ayiqqa bag'ishlangan afsonalarda bu bayram haqida ba'zi ma'lumotlarni o'qish mumkin. Ayiq bayramining variantlari va elementlari Sibir xalqlarining ba'zilarida XX asr boshlarida ham saqlangan va bunday bayramlarda ayiq timsolidagi kishi bosh qahramon bo'lib, u ayiqning qiliqlarini bajarib

¹ Юксак маънавият - енгилмас куч, И. А. Каримов, 28 бет

² Юксак маънавият - енгилмас куч, И. А. Каримов, 28 бет

raqsga tushadi³. O'rta Osiyoda esa "Ayiq o'yini" hozirgi davrgacha yetib kelgan, O'zbekiston hududida shuningdek, Turkiya, Hindiston mamlakatlari hamda Kavkazorti respublikalarining ayrim shahar ko'chalarida ayiq o'ynatib yurgan odamlarni ko'rish mumkin. Ular odamlar gavjum joylarda kichik tomoshalar ko'rsatib yurishadi. Balki bu qadimiy ayiq o'yinlaridan bizgacha yetib kelgan, totem bayramlar o'yining bir ko'rinishi bo'lishi ham mumkin⁴.

Biologik muhit insonning ma'naviy rivoji uchun kerak va ayni paytda zarur. Shuning uchun ham jamiyat hayotida mehnat o'yindan ko'ra katta kuchga ega deb yuritilgan. Bola o'ynab rivojlanadi, undagi shartli reflekslar birinchi va ikkinchi signallar tizimi, doimiy ravishda organizm atrof – muhit bilan o'zaro faoliyat va tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri paytida tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida shakllanadi. Shaxsning shakllanish va rivojlanish jarayoni insonning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish jarayoni hamdir⁵.

Tarbiya oldindan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bolaning ulg'ayishida muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatdagi tajribani o'zlashtirishda hal qiluvchi holat bolaning o'ziga, uning faolligi, tashqi muhit bilan o'zaro munosabat doirasiga bog'liq. Shuning uchun o'yin - bu ijodiy faollikni improvizatsion ya'ni tayyorgarliksiz holatida erkin namoyon qilishdir. O'zbek xalq o'yinlari mazmunan g'oyatda boy, shaklan xilma-xil bo'lib, muayyan ijtimoiy tavsifga ega. O'yinlar xalq tantanalari tomoshalarining eng yaxshi an'analarini o'zida jamladi, betakror o'ziga xosligi va xususiyatlari bilan milliy madaniyatni nihoyatda boyitdi, avlodlar vorisligining xalq an'analarini o'zida mujassamlashtirdi.

Xalq o'yinlarining paydo bo'lishini aniqlashda O'rta Osiyo xalqlariga oid mehnat va ov qurollari qadimiy inshootlarning qoldiqlari, tog'dagi konlari va g'orlar, qoyalarda ishlangan suratlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zi manbalarda o'yinlarning ilk vatani sharqiy Afrika deb berilgan bo'lsa-da, arxeologiya fanining eng so'ngi ma'lumotlariga ko'ra ilk poliolit davrining oxiridan boshlab O'rta Osiyoda ibridoiy odamlar yashay boshlagan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra ibridoiy odamlar hayotida ovchilik o'yinlari salmoqli o'rin tutgan. Ba'zi ma'lumotlarda o'yinlar ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalari ovdan keyingi o'yinlar haqida fikrlar bayon qilingan.

Agar bu ma'lumotlarni chuqurroq bayon qiladigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan keyin ham o'tkazilgan deyish mumkin.

³ Janhunen, Juha. *Tracing the Bear Myth in Northeast Asia*. University of Helsinki, 2001.

⁴ Dudeck, Stephan. *The Bear Festival in Western Siberia: Ritual Revivals among the Khanty and Mansi*. Arctic Anthropology, 2011.

⁵ Vygotsky, L.S. *Play and its Role in the Mental Development of the Child*. Soviet Psychology, 1978.

Ovdan oldingi o‘yinlar ov oldi mashqlari vazifasini o‘tagan hamda jiddiy o‘ziga xos kichik marosim shaklida uyuşhtirilgan. Ovdan so‘nggi o‘yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandan so‘ng uyuşhtirilgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Mashhur qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida ov haqida qadimiyo qo‘sinq va termalarni uchratamiz. Qo‘sinqlarda ov qilishning dastlabki namunalari tasvirlanadi:

Ov qushlarini ushlatib,
Tulki, to‘ng‘iz tishlatib,
Itlarimiz ishlatib,
Hunar bilan gerdaydik.

Mamlakatimiz hududlaridagi eng qadimgi davrlar haqidagi ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning natijalari xalq o‘yinlarning paydo bo‘lish haqida ham ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Ilk poliolit davri. Bundan taxminan 800 ming yil avval tugagan. Bungacha iliq iqlim bo‘lib, odamlar yer yuzining katta hududlariga tarqalgan. Bundan 140-150 ming yil avval – Muste davrida atrof – muhitni muzlik qoplay boshladidi. Shunda odamlar yashash uchun tabiat bilan kurash boshladilar. Toshlardan qurollar yasash takomillashadi; yirik hayvonlar va baliq ovlash odamlarning kundalik ehtiyojiga aylanadi. Hammaga ma’lumki, nayzani ushslash tartiblari, u bilan nishonni aniq mo‘jalga olish va uzoqqa uloqtirish unchalik qulay va oson emas. O‘ljani poylash va qo‘lga kiritish uchun turli xil murakkab harakatlarni bajarishga to‘g‘ri kelgan. Bolalar ham shunday jarayonlarda faol qatnashganlar, hayotiy amaliy, ko‘nikma va malakalarni shu harakatlar asosida mustahkamlashgan. Natijada xalq o‘yinlarining usullari vujudga kelgan.

2. Urug‘chilik jamiyati Matriarxar – ona urug‘i yetakchilik qilgan jamiyat egallagan edi. Bunda ayollar tirikchilik uchun kerak bo‘lgan noz-ne’matlarni saqlash, ovqat tayyorlash, zarur yoqilg‘i bilan ta’minlash, bolalarni parvarish qilish va tarbiyaviy ishlarda faoliq qilishgan. Erkaklar esa, asosan ovchilik bilan shug‘ullanganlar, mehnat qurollarini yasaganlar. Urug‘chilik jamoalarining paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi bilan asta sekin madaniyat sohasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jamoa yig‘ilishlarida qo‘sinqlар, o‘yinlar va raqlar, xalq o‘yinlari ijro etila boshlandi. Xalq o‘yinlari unsurlarining paydo bo‘lishi xuddi shu davrga to‘g‘ri keladi. Bevosita mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina musobaqa, o‘yinlar mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va ularidan urug‘ jamoasining turli yoshdagi guruhlari foydalana boshlaydi.

Xalq o‘yinlarining dastlabki namunalari insoniyatning ongi, tafakkuri rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishida o‘sha davr shart – sharoitlari odamlarning ov va turmush tajribalari, dunyoqarashi, urf – odat va marosimlar alohida e’tiborga molik bo‘lgan. Xalq o‘yinlari tasodifan paydo bo‘lgan emas, qadimiyo ajdodlarimiz

уларни шу даражага олиб келгунча, оғир машаққатли юлни босиб отганлар. Хар бир даврда ослаб келюотган юш авлодни жисмонан баркамол қилиб тарбиялаш табиий ва ижтимоий зарур edi.

Демак, аждодларимизнинг овчиллик фаoliyati асосида – “овчиллик о‘йнлари”, чорвачиллик асосида “xo‘kiz, ot, ayiq o‘йнлари” шаклланди. Xalq оғзаки ijodining noyob durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostoni millatimizning о‘злигини namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga о‘тib kelayotgan qahramonlik qo‘sigidir. Bu doston chavandozlik, meraganlik, mardlik, haqida so‘zlaydi. Shu о‘rinda kichik bir misolga murojaat kilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiyligi tasavvurlariga ko‘ra, о‘q-yoy—hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida о‘н то‘rt botmon birichdan—bronzadan yasalgan yoydan о‘q otib, “alp” degan unvonga ega bo‘ldi. Otgan о‘qi Askar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib о‘tadi. Yana dostonda Barchin erga tegish учун 4 ta shart qo‘yadi. Shartlarning ikkitasi о‘q – yoy otish bilan bog‘liq.

Grek tarixchisi Gerodot Xorazmiylar bilan yonma – yon yashayotgan saklar qabilasidagi мohir meraganlar haqida bunday deb yozgan: saklar qabilasining odamlari о‘qi bejiz ketmaydigan juda мohir meraganlar sifatida shuhrat qozonganlar”. Shuningdek, о‘zbek xalq о‘йнлари орасида chavandozlik bilan bog‘liq bo‘lgan о‘йнлар, musobaqalar doimiy ravishda о‘tkazilib turilgan, lekin ulardagi jismoniy mashqlarning asosiy yo‘nalishi harbiy – amaliy tavsifga ega bo‘lgan. Xalqimizni otsiz tasavvur qilish qiyin, shuningdek ilk bolalik chog‘idanoq ot minish bu yurtda yashovchilar учун одат tusiga kirgan. Xalqimiz орасида от билан bog‘liq “Qiz quvmoq”, “Ag‘darish”, “Poyga”, “Ko‘pkari, uloq”, “Ot ustida qilichbozlik”, “Qovoq о‘yini”, “Chavgon” каби xalq о‘йнлари ko‘plab о‘tkazilgan.

Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” асарида “uloq” со‘зини ko‘p ishlatgan. Al Maqsudiy Qurbon hayiti haqida: “Bayram kuni jurjonliklar bilan bekrobotliklar о‘rtasida tuyu kallasini qo‘lga kiritish учун tortishuv bo‘ladi”, deb qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

Yusuf Xos Hojib begona давлатга борадиган elchining о‘зига xos bo‘lgan fazilatlar: bilimdonlik, chechanlik, tadbirkorligidir deydi: “Shaxmat va narda о‘йнлари elchining fazilatlarini шу даражада aks ettirishi lozimki, toki hariflari undan ustun bo‘lmisin. Chavgon о‘yinida мohir, yoy tortishga qodir, qushchilik, овчиллик, sirlaridan xabardor bo‘lish ham elchi fazilatlarini oshiradi.”

Ajdodlarimiz qoldirgan qadimiyligi qo‘lyozmalar, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, topishmoqlar va qo‘sishlarda kurash haqidagi ko‘plab atamalar uchraydi. Buyuk ajdodlarmizdan biri Mahmud Qoshg‘ariy ham о‘з асарларидаги milliy kurashimizning qoidalari, usullari haqida qator misollar keltiradi. Masalan, olishish, tortishish, tepdi, kurashdi, kurash tushdi, yiqitdi, uni chalib yiqitdi, kamar qaytardi, ko‘tardi, qayirdi, tepishdi, sakrashdi, uning oyog‘ini kurashda chaldi, qayirdi, ular ikkovi bir – birlarining bo‘ynini qayirishda bellashdilar kabilarni keltirib о‘tgan.

Mashhur hakim Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” kitobida kurashning ikki turini tavsiflab, ularni mohiyatini va qo‘llanish qoidalarini mufassal yozib qoldirgan. Uning ta’rificha, kurashning bir turida belidan ushlashga ruxsat bermay, oyoq ishlatmasdan kurashish bo‘lsa, ikkinchisi qaysi joydan ushlab olsa shu yerdan mahkam tutib va oyoqlar yordamida harakat qilishdir. Ammo kurashning ikkala turida ham qo‘llar bilan oyoqdan olish qat’iyan man qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq o‘yinlari – bu faqatgina qadimiylardan madaniyat namunasi emas, balki zamonaviy ta’lim jarayonida tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va o‘rgatuvchi vosita sifatida foydalanimli mumkin bo‘lgan kuchli pedagogik resursdir. Ularni boshlang‘ich ta’limda tizimli va maqsadli qo‘llash, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Demak, xalq og‘zaki ijodiyoti – o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi mustahkam ko‘prikdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Janhunen, Juha. Tracing the Bear Myth in Northeast Asia. University of Helsinki, 2001.
2. Dudeck, Stephan. The Bear Festival in Western Siberia: Ritual Revivals among the Khanty and Mansi. Arctic Anthropology, 2011.
3. Vygotsky, L.S. Play and its Role in the Mental Development of the Child. Soviet Psychology, 1978.
4. Abduqodirov, R. O‘zbek xalq o‘yinlari: tarixi va pedagogik ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat, 2019. Tandfonline (Cambridge Core) nashr qilingan maqola:
5. “The Shahnameh of Ferdowsi as World Literature”, Iranian Studies, 2015, vol. 48(3), Franklin Lewis
6. Davlatova, S. T. qizi Abdullayeva, FS (2023). Bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ota-onalarning qarashlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 819-823.
7. Tojimukhammadovna, D. S. (2025). Pedagogical Foundations of Developing Students’ Professional Competencies in Club Classes. *International Journal of Pedagogics*, 5(04), 141-145.
8. Абдурахимова Д.А. “Халқ оғзаки ижоди- маънавий тарбия воситаси” .Ўқув қўлланма. Тошкент, 2004 йил.
9. Аҳмедов.Б - тузувчилар ва изоҳлар муаллифи. Аждодлар ўгити, ҳикоятлар, ҳикматлар, таснифлар . Тошкент, Чўлпон, 1991 йил.